

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 231 (1292), 2024-yil 14-noyabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA USTUVOR YO‘NALISHLARDA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH BO‘YICHA SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-13-noyabr kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga ko‘ra BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) tadbirlarida qatnashish uchun Boku shahrida bo‘ldi.



13-noyabr kuni COP29 sammiti doirasida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon o‘rtasida “yashil” energiyani rivojlantirish va uzatish sohasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy maqsad emas, balki kelajakka qo‘shilayotgan hissa, kelgusi avlodlar oldidagi mas‘uliyat tuyg‘usining natijasi ekanligini ta’kidladi.

Loyihaning ekologik ahamiyati alohida qayd etildi. Uzatiladigan energiya — bu shamol va quyosh energiyasi bo‘lib, qayta

tiklanadigan va toza manba hisoblanadi hamda iqlimga ta’sirni yumshatish imkonini beradi.

Shu orqali tomonlar Parij bitimi va Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlimni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Mamlakatlarimiz qayta tiklanuvchi energiyani katta zaxiralarga ega bo‘lib, global energetik o‘zgarishlarga salmoqli hissa qo‘shishi mumkinligi ta’kidlandi.

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning muhim jihatlari alohida to‘xtalib o‘tdi.

“Yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dastur qabul qilingan. Mamlakatimizda har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda.

Bundan tashqari, joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo‘shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi.

2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattlik energiya saqlash tizimlarini yaratish rejalashtirilgan.

Ishga tushirilayotgan loyiha iqtisodiy samarasini barcha ishtirokchilar his etishiga ishonch bildirildi.

O‘n minglab yangi ish o‘rinlari yaratiladi, energetika infratuzilmasi rivojlanadi, texnologik va ishbiarmonlik aloqalari kengayadi. Eng muhimi, aholi turmush darajasi oshadi.

Loyihani amalga oshirishni jadallashtirish, jumladan, qo‘shma korxona tashkil etish, texnik hujjatlarni ishlab chiqish va kelishish, boshqa tartib-taomillarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Yakunda Prezidentimiz O‘zbekistonning ushbu mintaqaviy loyiha birgalikda

amalga oshirishga intilishi qat’iy ekanini tasdiqladi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisini BMTning Iqlim bo‘yicha sammiti (COP29) muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan samimiy muborakbod etdi.

Joriy yil avgust oyida oliy darajada erishilgan kelishuvlar doirasida O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik va ittifoqchilik munosabatlari yanada

kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni jadal rivojlantirish yilida hamkorlik yuksak darajaga yetgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, elektro-texnika, qishloq xo‘jaligi, qurilish va shaharsozlik hamda boshqa yo‘nalishlarda ko-operatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON YETAKCHISINING TASHABBUSLARI MARKAZIY OSIYONING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TURTKI BERISHI KERAK

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Boku shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasining (COP29) asosiy yalpi sessiyasidagi ishtiroki va nutqi haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasining (COP29) asosiy yalpi sessiyasida qatnashdi.

Tadbirda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan davlat va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etdi.

E’tiborlisi, O‘zbekiston Prezidentining mazkur sammitdagi nutqida ilgari surilgan takliflar xorijiy ekspert doiralari vakillarining katta qiziqishiga sabab bo‘layotir.

Davomi 2-betda

SIYOSIY LANDSHAFT: YANGI PARLAMENT, YANGI DAVR, YANGI IMKONIYATLAR

Tahlil
Yaqqin yillarga qadar ko‘p hollarda siyosiy jarayonlarda faol bo‘lish, o‘z fikrimizni ochiq aytishdan hadiksirab turardik. Atrufimizda siyosatdan qo‘rqadigan, aralashishni xohlamaydigan, o‘zini himoya qilish maqsadida uzoqroq turadigan, “sening gaping ma’kul”, “menga nima”, deyidiganlar ko‘payayotgan edi. Shukrki, bugun vaziyat butkul boshqacha.

Qisqa davrda fikrlarimiz o‘zgardi, qarashlarimiz, yondashuvimiz yangilandi. “Muzlab qolgan onglar”ning muzlari eridi. Siyosiy jarayonlar va saylovlarga shunchaki emas, teran nigoz bilan qaray boshladik.

Buni bu yilgi saylov jarayonida yanayam yaqqol his qildik.

2024-yil 27-oktabrda o‘tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlariga deputatlar saylovi mamlakat siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Saylov jarayonida 15 milliondan ortiq saylovchi ovoz berdi. Saylovchilarning faolligi 74,72 foizni tashkil etdi, bu esa fuqarolarning siyosiy jarayonlarga qiziqishi nechog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Bizning tanlovimiz bizning kelajagimizni belgilashini shu yillarda isboti bilan ko‘rdik. 2021-yilda Prezident saylovi, 2023-yilda konstitutsiyaviy referendum, shuningdek, muddatidan avvalgi Prezident saylovidan so‘ng bu yilgi saylov so‘nggi to‘rt yildagi to‘rtinchi yirik siyosiy voqeadir. Biz har birida o‘z fikrimizni bildiradik, jarayonlarda faol qatnashdik.

Davomi 3-betda



Bundan besh yilcha avval kasbim taqozosi bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligida turar joy binolari qurilishini rag‘batlantirish, sohaga bozor mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha tashkil etilgan yig‘ilishda qatnashishga to‘g‘ri keldi. Unda tizimga bevosita aloqador tashkilotlar va bank rahbarlari ishtirok etgandi.

Shunda mutasaddilar yig‘ilishda sohada keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazish, xususiy quruvchi tashkilotlarni ko‘proq jalb qilish va tizimda haqiqiy raqobat muhitini yaratish borasida topshiriq berilganini, bunda quruvchiga ham, uy-joy sotib oluvchilarga ham yengilliklar berilishiga oid yangi tizim

ishga tushirilishini bildirdi. Bu bo‘yicha birinchi bosqichda 1 milliard AQSH dollari yo‘naltirilishini, agar lozim bo‘lsa, banklar orqali yana shuncha mablag‘ ajratilishini aytdi.

Davomi 4-betda



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA USTUVOR YO‘NALISHLARDA AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH BO‘YICHA SAMARALI MULOQOTLAR

Boshlanishi 1-betda

Loyihalar portfelini, shu jumladan, Qo‘shma investitsiya kompaniyasi mablag‘larini jalb etgan holda yanada kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Afg‘onistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashishga qaratilgan amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Faol madaniy-gumanitar va hududlararo almashinuvni davom ettirish, shuningdek, 2025-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligini nishonlash doirasida keng qamrovli tadbirlar dasturini tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv doirasida Xonkandi shahrida qo‘shma tikuvchilik fabrikasini ishga tushirish marosimi ham bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Petr Fiala bilan uchrashuvida O‘zbekiston — Chexiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Chexiya an‘anaviy ravishda mamlakatimizning Yevropadagi muhim hamkori hisoblanadi. Keyingi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 barobar, qo‘shma korxona va loyihalar soni 3 barobar ko‘paydi.

Hukumatlararo komissiya ishini faollashtirish, tovar ayirboshlashni ko‘paytirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” va aniq loyihalardan iborat sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining Gretsiya Bosh vaziri Kiriakos Mitsotakis bilan uchrashuvida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va amaliy aloqalarni rivojlantirish masalalari, ayniqsa, siyosiy hamda savdo-iqtisodiy sohalaridagi munosabatlar muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlash hajmini ko‘paytirish choralarini ishlab chiqish, farmatsevtika,

elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi hamda boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini shakllantirish muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, madaniy-gumanitar va sayyohlik yo‘nalishlaridagi almashinuvlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Kelgusi yilda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasini Afinada hamda Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya yig‘ilishini Toshkentda o‘tkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezidentimizning Global ekologik fond (GEF) bosh direktori va raisi Karlos Rodrigues bilan uchrashuvida jamg‘arma bilan O‘zbekistonda iqlim barqarorligi va ekotizimlarni muhofaza qilish borasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

GEFning mamlakatimizda bioxilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni boshqarish, iqlim o‘zgarishiga moslashish loyihalarini amalga oshirishdagi muhim hissassi mamnuniyat bilan qayd etildi. Qo‘shma loyihalar portfeli 100 million dollardan oshgan.

Havo sifatini monitoring qilish bo‘yicha mintaqaviy tarmoq yaratish, ko‘kalamzorlashtirish va ekoturizmni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, yo‘qolib borayotgan hayvon turlarini asrash, shuningdek, Orolbo‘yi hududini qayta tiklash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Kelgusi yilda O‘zbekistonda yirik xalqaro tadbirlar, jumladan, Global ekologik fond donorlari yig‘ilishini o‘tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Boku shahrida o‘tayotgan BMTning Butunjahon iqlim sammitida (COP29) tashkil etilgan O‘zbekiston Milliy pavilyoni bilan tanishdi.

Prezidentimizga pavilyonning g‘oyasi va unda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Pavilyon O‘zbekistonning noyob madaniy merosi hamda ekologiya va iqlim masalalariga barqaror yondashuvlarini namoyish etishga

mo‘ljallangan. Uning “Ichki barqarorlik” deb nomlangan me’moriy konsepsiyasi insonning tabiat bilan uyg‘unligini va oilaviy qadriyatlarini ifodalovchi an‘anaviy o‘zbek hovlisiga asoslangan.

Somon suvoq va yog‘och kabi ekologik, an‘anaviy materiallardan foydalanib, azaldan o‘zbek xonadonining ajralmas qismi bo‘lmish ayvon va so‘ridan ilhomlanib bunyod etilgan pavilyon uyg‘un makon hosil qiladi. Birgalikda ushbu me’moriy yechimlar qulay mikroiqlimni ta’minlaydi, shinam muhit yaratadi va barqaror kelajak haqidagi g‘amxo‘rlikni aks ettiradi.

Sammit kunlarida bu yerda Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy-ekologik muammolarini hal etish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda bioxilma-xillikni asrashga bag‘ishlangan 20 dan ortiq qo‘shimcha tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizning Milliy pavilyonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Mamlakatimizning JSTga a’zo bo‘lishi masalalarida amaliy hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb jihatlarini ko‘rib chiqildi.

Ishchi guruh yig‘ilishlarini o‘tkazish, shuningdek, ushbu xalqaro tashkilotga a’zo mamlakatlar bilan olib borilayotgan muzokaralar sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi.

Milliy qonunchilikni JST me’yorlari va qoidalariga uyg‘unlashtirish, jumladan, eksport subsidiyalari bekor qilish bo‘yicha ishlar faol olib borilmoqda.

Xalqaro savdoni tartibga solish masalalarida o‘zbekistonlik mutaxassislar malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Muzokaralarni yakunlash va yaqin yillarda O‘zbekistonning tashkilotga a’zo bo‘lishi bo‘yicha sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ozarbayjonlik adabiyotshunos va shoir Akif Bag‘irovni qabul qildi.

Akif Azalp taxallusi bilan tanilgan shoir Naxichevonda tug‘ilgan, ammo umrining katta qismini O‘zbekistonda yashab, ijod qilgan. Ozarbayjon xalqini o‘zbek adabiy muhiti bilan yaqindan tanitishda fidoyilik ko‘rsatib kelmoqda. U ko‘plab o‘zbek shoirlari, adiblarining asarlarini ozarbayjon tiliga o‘g‘irgan. Xususan, yaqinda Sirojiddin Sayyidning “Vaqit haykali” kitobini tarjima qilgan. Shoir xalqimizning shonli tarixi va O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yutuqlaridan, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlardan ilhomlanib yozilgan “O‘zbek kelayotir” qasidasi bilan ham mashhurdir.

Uchrashuvda Akif Bag‘irov yuksak hurmat va minnatdorlik ramzi sifatida Prezidentimizga o‘zi ozarbayjon tilida tayyorlagan “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobini taqdim etdi.

Kitobdan siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Mening Prezidentim” va “Millatparvar” kitoblaridan saralab olinib, shoir tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan publicistik esselar o‘rin olgan. U davlatimiz rahbari boshchiligidagi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy islohot va o‘zgarishlarga bag‘ishlangan. Unda Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohani yaxshilash va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Prezidentimiz shoirga o‘zbek adabiyotini Ozarbayjonda ommalashtirish va ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo‘shgan hisssasi uchun minnatdorlik bildirdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrif yakunlandi.

O‘ZA

AKADEMIK TEMURJON NOSIROV



O‘zbekiston ilm-fani og‘ir judolikka uchradi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, texnika fanlari doktori, professor Temurjon Nosirov 2024-yil 12-noyabr kuni 83 yoshida vafot etdi.

T.Nosirov 1941-yil 25-iyulda Toshkent viloyatining Zangiota tumanida tug‘ildi.

1963-yilda Toshkent politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)ni muhandis-elektrik mutaxassisligi bo‘yicha tamomladi. Mehnat faoliyatini ushbu oliygohda assistent sifatida boshladi. Keyinchalik institut aspiranturasida tahsil olib, dastlab nomzodlik, so‘ngra doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2000-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining a’zosi etib saylandi.

T.Nosirov o‘zining 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Toshkent davlat texnika universitetining katta o‘qituvchisi, dotsenti, kafedra mudiri, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik

jamiyati huzuridagi Energetika markazi direktori, Fanlar akademiyasining Energetika muammolari institutida bosh ilmiy xodim kabi mas’uliyatli lavozimlarda samarali faoliyat ko‘rsatib, el-yurtimizga siddiqdildan xizmat qildi.

Taniqli olimning elektr energiyasi tizimlarining normal va avariya holatidagi rejimlarini kompleks tahlil usullarini yaratish va umumlashtirish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan keng e’tirof etilgan.

T.Nosirovning elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash rejimlarini samarali boshqarish uchun integrallashgan modellarni yaratish, sanoat korxonalarida energiya sarfini o‘rganish va tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan bog‘liq bir qator ilmiy ishlanmalari iqtisodiyot tarmoqlariga muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Zahmatkash olimning 300 dan ortiq ilmiy maqolalari, 6 ta monografiyasida mamlakatimizning zamonaviy energetika tizimidagi islohot va modernizatsiya jarayonlari, sohani rivojlantirish istiqbollari atroflicha tahlil etib berilgan.

T.Nosirov ko‘plab yoshlarga ilmfan sirlaridan saboq berdi. Uning rahbarligida 5 nafar fan doktori va 10 nafardan ortiq fan nomzodi tayyorlandi.

Taniqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Temurjon Nosirovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, Q. ALLAYEV

O‘ZBEKISTON YETAKCHISINING TASHABBUSLARI MARKAZIY OSIYONING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TURTKI BERISHI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Vladimir BACHISHIN, “Comenius Analytica” tahlil markazi direktori (Slovakiya):

— O‘sb borayotgan iqlim muammolari sharoitida O‘zbekiston delegatsiyasining COP29 da oliy darajada ishtirok etishi mamlakatning nafaqat emissiyalarni kamaytirish va barqaror amaliyotni joriy etish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish, balki mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga intilishidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida mamlakat iqlim o‘zgarishiga qarshi global kurashga salmoqli hissa qo‘shish qat’iyati o‘z ifodasini topgan va bu borada birgalikdagi sa’y-harakatlar zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish, “yashil” energetikani rivojlantirish, quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish markazlarini yaratish bo‘yicha ulkan rejalarni, shuningdek, Yevropaga “yashil” energiya yetkazib berish bo‘yicha hamkorlikni boshlanishi taklif etdi.

Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz, Transchegaraviy suv



resurslarini muhofaza qilish deklaratsiyasi, o‘simliklarning iqlimga chidamligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini, Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish kabi tashabbuslar ayniqsa ahamiyatlidir. Ushbu tashabbuslar O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda “yashil” o‘sish va barqaror rivojlanishga sodiqligini, shuningdek, mamlakat faol xalqaro hamkorlikka tayyortligini ko‘rsatadi.

Muhammad Tolib Bin Mohamad Raja MOHAN, Malayziyadagi IHT Xalqaro biznes markazi bosh ijrochi direktori:

— O‘zbekiston Prezidenti tomonidan COP29da ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatning iqlim xavfsizligi va barqaror rivojlanishga sodiqligini aks ettiradi. Ular xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or texnologiyalar va resurslar imkoniyatlaridan keng foydalanish, shuningdek, iqlim muammolari yechimiga yoshlarni faol jalb etishga qaratilgan.

Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish taklifi o‘z vaqtida va muhim ahamiyatga ega. Markaz zaruriy yordam va sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi bilim va ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashning asosiy vositasi bo‘lishi mumkin. Bu iqlim loyihalarini amalga oshirish uchun xalqaro moliyalashtirishni ham jalb qilishda qo‘l keladi.

BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi



deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusi alohida e’tiborga loyiq. Darhaqiqat, transchegaraviy suv resurslarining ifloslanishi muammosi, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Bunday hujjat mamlakatlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni yaxshilash, ekologik xavfsizlik darajasini oshirish va suv ekotizimlarining biologik xilma-xilligini saqlash imkonini beradi.

Go‘zel MAYTDINOVA, Geosiyosiy tadqiqotlar markazi direktori, tarix fanlari doktori (Tojikiston):

— Global isish oqibatlari Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mintaqa allaqachon ko‘plab ekologik va iqtisodiy muammolarga duch kelmoqda. Shu bois, Bokuda bo‘lib o‘tgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hadli konvensiyasiga a’zo davlatlar konferensiyasining 29-sessiyasining iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Jahon sammiti muhim ahamiyatga ega.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari ishtirok etib, iqlim o‘zgarishi kambag‘allikni bartaraf etish, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta’minlash, suv va resurslardan foydalanish muammolarini hal etishga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy iqlim strategiyasini birgalikda amalga oshirmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston COP28 va boshqa uchrashuvlar doirasida ham mintqa davlatlarini ekologik muammolarni birgalikda hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yagona standartlarni yaratish uchun birlashtirgan “Bir mintqa, bir ovoz” strategiyasini taqdim etgan edi. O‘zbekiston 2030-yilga borib, havoga



issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish niyatida.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yilgi sammitdagi nutqida global iqlim o‘zgarishi oqibatlarini birgalikda bartaraf etish bo‘yicha qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Iqlim o‘zgarishi Markaziy Osiyo mintaqasining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga ta’sir ko‘rsatayotganini hisobga olib, O‘zbekiston yetakchisining tashabbuslari Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga turtki berishi kerak.



Shahriyor XON, “Milliy muloqot forumi” markazi ijrochi direktori (Pokiston):

— O‘zbekistonning 2030-yilgacha havoga isciqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirish va 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha ulkan maqsadlarni menda, ayniqsa, katta taassurot qoldirdi. Bu mintaqaning iqtisodiy va iqlimiy voqeeligini hisobga olgan holda juda salmoqli hissdirdi.

O‘zbekistonda “yashil” energetika faol rivojlanmoqda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 40 foizga yetkazilmoqda, quyosh, shamol va vododor energetika xablari tashkil etilmoqda. Bu nafaqat barqaror kelajak sari strategik qadam, balki boshqa rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, bunday tashabbuslar juda zarur bo‘lgan Pokiston uchun ham namunadir.

Iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish taklifi, ayniqsa, iqlim o‘zgarishiga eng zaif davlatlar uchun ekologik yo‘qotishlarni baholash va qoplashda kuchlarni birlashtirish zarurligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Pokiston kabi rivojlanayotgan davlatlar o‘ziga xos iqlim muammolariga duch kelayotganini, shuning uchun bunday institutlarni yaratish mintqa va butun dunyoga foydali bo‘lishini tushunadi. Bu taklif xalqaro hamjamiyatning jiddiy e’tibori va qo‘llab-quvvatlashiga loyiqdir.

“Dunyo” AA



SIYOSIY LANDSHAFT: YANGI PARLAMENT, YANGI DAVR, YANGI IMKONIYATLAR



Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
Milliy media birlashmasi
boshqaruvi raisi, professor

Boshlanishi 1-betda

YANGI PARLAMENTGA YANGICHA SAYLOV

Yangi O‘zbekistonda ko‘plab sohalar qatori saylov tizimi ham chuqur isloh qilinishi jamiyatni demokratlashtirish sari qo‘yilgan jiddiy qadam hisoblanadi.

Bu saylov ilk bor majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida o‘tkazildi. Natijada siyosiy partiyalar orasidagi raqobat kuchaydi va jamiyatning demokratik muhiti yanada yaxshilandi.

Aralash saylov tizimi orqali siyosiy partiyalarning saylovchilar bilan aloqalari yanada mustahkamlanib, fuqarolar siyosiy partiyalarning faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Eng muhimi, o‘z sohasining yetuk mutaxassislari saylanishi uchun qulay sharoit yaratildi.

Bu yilgi saylovda har bitta ovozning qadr-qimmatini oshdi, aholi har bir ovoz muhimligini angladi. Partiyalar “egizaklik”dan voz kechib, haqiqiy raqobatga kirishganini elektorat ham sezdi. Buni saylovda jamoatchilik partiyalar dasturlarini o‘rganib chiqqani, ularning rejalarga qiziqishi ortganidan bilish mumkin. Bu jarayonda ko‘prik vazifasini bajargan biz — OAV vakillari demokratik jarayonlar rivojiga hissamizni qo‘shganimizdan faxr uyamiz.

Saylov jarayonlarida “siyosiy landshaft” atamasi muomalaga kirib keldi. Siyosiy landshaft umumiy siyosiy muhitni, jamiyatda siyosiy kuchlar bir-biri bilan qanday hamkorlik qilishi yoki o‘zaro bahsini ifodalaydi.

Bu atama aynan davlatning siyosiy hayotini va siyosiy madaniyatini to‘liq tushunishga yordam beradi va demokratik jarayonlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.



SAYLOV QANDAY O‘TDI?

Bu savolni shu yurt kelajagiga daxldor har bir kishi o‘zidan so‘rayotgani va tahlil qilayotgani aniq. Chunki har birimiz o‘zimiz ishongan va Saylovoldi dasturidagi g‘oyalari manfaatlarimizga mos kelishiga ishongan, munosib deb bilgan nomzodlarga va partiya ovoz berganmiz.

O‘zbekistonning 40 ta xorijiy davlatdagi diplomatik va konsullik muassasalari huruzida 57 ta saylov uchastkasi va yurtimizdagi 725 ta okrug saylov komissiyasi tarkibidagi 11 ming 28 ta saylov uchastkasida mas‘uliyatni his qilgan, “Mening tanlovim —



Jaloliddin USMONOV,
Xalqaro press-klub raisi

obod Vatanim” kelajagiga ta’sir ko‘rsatadi, deb ishongan saylovchilar ovoz berdi.

Takomillashish yo‘lida tashlangan yana bir muhim qadam sifatida mamlakatimiz tarixida ilk marotaba Toshkent shahridagi ayrim saylov uchastkalarida saylov kuni elektron ovoz berish tajriba-sinov tariqasida joriy etilganini aytib o‘tish kerak. Elektron ovoz berish uskunolari ovoz berish va saylov natijalarini tezkor aniqlash, ovoz berish jarayonlarining qonuniyligini ta’minlash, saylov komissiyalari ish hajmini yengillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Saylov jarayonlarida 32 mingdan ortiq professional foydalanuvchiga qulaylik yaratgan “E-saylov” axborot tizimi orqali 200 mingdan ortiq hujjat almashinuvi amalga oshirildi. Bu iqtisodiy xarajatlarni kamayishga olib keldi. Bundan tashqari, saylovchilar va nomzodlar uchun ham ko‘plab qulayliklar yaratildi.

Ilgarigi deputatlikka nomzodlar orasida ayollar kamida 30 foiz bo‘lishiga oid gender kvotasi endi 40 foizgacha ko‘tarildi. Siyosiy partiya ro‘yxatidagi ketma-ketlikda esa kamida har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozimligi belgilangan edi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlar orasida ayollar 44,7 foiz edi. Natijalar tahliliga ko‘ra, saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar egallagan. Bu saylov tariximizdagi eng yuqori ko‘rsatkichdir.

Saylovlarni kuzatish xalqaro missiyasining: “Barcha siyosiy partiyalar mumkin bo‘lgan maksimal miqdordagi nomzodlarni ko‘rsatdi. Ijobiy jihati shundaki, nomzodlarning 45 foizi ayollar bo‘lib, bu 40 foizlik kvotadan oshib ketgan”, degan ma’lumoti ham xotin-qizlarning faolligi, qat’iyatini ifodalaydi.

Bu yilgi saylovda vazirlar, olimlar va artistlar o‘z nomzodini qo‘yishi turli talqinlarga sabab bo‘ldi. Tan olib aytish kerak, taniqli shaxslarning

faqatgina raqobat emas, balki yangi fikr va g‘oyalar almashinuvi ham bo‘lishi kerak. Biz bu yil ana shunday muhitga guvoh bo‘ldik.

PARLAMENT QANDAY BO‘LADI?

Inson manfaatlarini ta’minlash, huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish hamisha birlamchi vazifa va maqsad bo‘lgan mamlakatimiz kelajagini qalban uyg‘oq bo‘lsakka qura olamiz. Chunki jasoratli, qalbi uyg‘oq jadid bobolarimiz mana shunday O‘zbekistonni orzu qilib yashadi, bugungidek O‘zbekistonni ko‘rish istagi yo‘lida jon berdi. Biz shunday kunlarni ko‘ryapmiz, yashayapmiz.

Qonunchilik palatasiga saylov natijalariga ko‘ra, parlament quyi palatasi tarkibi qariyb 60 foiz yangilandi. Bu yangi fikrlar, yangi tashabbuslar ustuvorligi ta’minlanadi, deganidir. Deputatlarning 35 foizi ilmiy darajaga ega ekan, 15 foizi xorijda tahsil olgani qonunchilik jarayonida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ular tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni parlamentga olib kiradi, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda ilmiy asoslangan qonunlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Bu esa o‘z-o‘zidan jamiyat hayotini yaxshilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari saylangan deputatlarning 12,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, nogironligi bor 3 shaxsa ilk bor ishonch bildirildi.

Yangi parlament tarkibidagi bu ko‘rsatkich jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini ifoda etish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish uchun asosiy yo‘ldir. Shunga javoban biz ham jamiyatda faol bo‘lsak, o‘zimiz, oilamiz, yaqinlarimizning kelajagini belgilash yo‘lida doim muhim qadamlar qo‘ya olamiz.

Prezidentimiz Navoiy viloyatini



ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish davomida parlament saylovi borasida: “Mamlakatimiz demokratik taraqqiyotning yangi davriga, sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz barcha bo‘g‘indagi deputatlarimiz timsolida zimmasidagi mas‘uliyatni chuqur anglaydigan, yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida o‘zini ayamasdan tinimsiz harakat qiladigan, bor bilim va tajribasini vatan ravnaqi uchun safarbar etadigan fidoyi insonlarni tasavvur qilamiz. Partiyalar va deputatlikka nomzodlarning Saylovoldi dasturlarida fuqarolarimizning orzu-intilishlari, dalil tashvishlari, mavjud muammolarni hal etish yo‘llari o‘z ifodasini topganini alohida ta’kidlash lozim.

Xalqimiz sizlarning yangi g‘oya va tashabbusingizga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. El-yurtimiz yangi parlament va mahalliy kengashlar a’zolaridan ko‘p narsani kutmoqda”, deya fikr bildirdi.

Bu yangi parlament vakillari uchun yuksak mas‘uliyat, bildirilgan ishonch va samarali natija kutilayotganining belgisidir.

JONLI EFIRLAR, TELEDEBATLAR. HAYAJONGA TO‘LA “DEBAT XOLL”

Joriy yilning 27-sentabrda Milliy media birlashmasi va Xalqaro press-klub hamkorligida Toshkent shahrida joylashgan “Zarafshon” tadbirlar majmuasida “Debat xoll” nodavlat teleradiokanallar mediamarkazi tashkil etildi. Bu markazning tashkil etilishi zimmamizga yana ham yuksak mas‘uliyat yukladi. Bu siyosiy



“Debat xoll” mediamarkazi tashkil etilgan ko‘cha ramziy ma’noda “saylov ko‘chasi”ga aylandi. Har bir partiya uchun tayyorlangan maxsus joylarda shiorlar, bannerlar, tarqatma materiallar, nomzodlar haqida ma’lumotlar jamlandi. Sayyohlar, poytaxt mehmonlari, yoshlar bilan to‘lib-toshgan bu joyda saylovga oid so‘rovnomalarni muntazam tashkil etilib, intervyular olindi. Bu esa insonlarning siyosiy

debatning o‘ziga xos etikasidir. Jarayonda saylovchilar o‘zlari uchun muhim ma’lumotlarni olishi mumkin. Teledebat talablarini muvozanatni saqlagan holda bajarish ishtirokchilardan ko‘ra ko‘proq bizni cho‘chitgani bor gap. Ammo o‘z oldimizga qo‘ygan vazifalar — siyosiy raqobatni kuchaytirish, saylovchilarni xabardor qilish, shaffollikni ta’minlash, teng imkoniyatlar yaratish, siyosiy madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, saylovchilar faolligini oshirishga hissa qo‘shdik deb ayta olamiz.

“Ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirish”, “Davlat boshqaruvi va sud-huquq”, “Iqtisodiyot va tadbirkorlik”, “Ilm-fan, ta’lim va yoshlar siyosati”, “Ekologiya, sog‘liqni saqlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” mavzularida jonli efitra uzatilgan teledebatlar davomida siyosiy partiya vakillarining aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilishiga imkoniyat yaratib berildi. Shuningdek, siyosiy partiyalar raislarining saylovchilar bilan uchrashuvi hamda siyosiy partiyalarning vakillari o‘rtasidagi “Ijtimoiy-iqtisodiy sohani yanada rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va samarali ekologik siyosat” mavzusidagi teledebatlar ham saylovchilar tomonidan xolis axborot manbasi sifatida qabul qilindi.

O‘zbekistondagi beshta siyosiy partiya rahbarlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodlar ishtirok etgan teledebatlar va sessiyalarda ular o‘z partiyalari tashabbuslari, takliflari, fikrlarini himoya qilib, aholiga yetkazishga harakat qildi. Saylovchilar esa turli siyosiy kuchlarning pozitsiyalarini taqqoslash imkoniga ega bo‘ldi.

Bugun xalqning siyosiy ongi o‘sd, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etyapti. Fikrini, tashabbuslarini ochiq-oshkora aytish o‘z kelajagini belgilash yo‘lidagi muhim qadam ekanini bilaypti. Teledebatlar davomida qo‘ng‘iroqlar markazi, telegram-bot, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholini o‘ylantirayotgan, bezovta qilayotgan yo‘nalishlarda yuborilgan savollar, murojaatlarda ham bu namoyon bo‘ldi.

Teledebatlarning har biri haqiqiy bahs, munozara maydoniga aylandi. To‘rt raundda tashkil etilgan teledebatlarda partiya vakillari raqiblarining Saylovoldi dasturlaridagi ko‘plab jihatlariga e’tibor qaratdi va hatto tanqid qildi. Aechchiq-achchiq haqiqatlar o‘rtaga tashlandi. Saylovchilar uchun aynan shunday muhit, ma’lumotlar jamlanmasini yetkazish muhim, albatta.

Teledebatlar haqida OAV, jamoatchilik, blogerlar, internet nashrlar, qator ekspertlar o‘z fikrlarini bildirib bordi. Teledebatlar siyosiy partiyalar uchun raqobat platformasiga aylangani, saylovchilar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lgani, muhimi, teledebatlar 7 ta telekanalda, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek, rus, ingliz, qoraqalpog‘ tillarida uzatilgani e’tirof etildi.

Xo‘sh, bu bizga nima beradi? Saylovchilarga partiyalarning platformalari bilan yaqindan tanishish va ongli ravishda qaror qabul qilish, ingliz tilidagi ma’lumotlar esa xalqaro hamjamiyatga O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarni kuzatish imkonini berdi, bu esa mamlakatning xalqaro imijini yaxshilashga xizmat qildi.

Biz mavzuga oid axbortlarni tezkorlik bilan berishga harakat qildik. Markaziy va hududiy gazetalarda 1500 ga yaqin maqola chop etilib, MTRK tizimidagi tele va radiokanallarda 10 mingdan ziyod teleradiomahsulot efitra uzatildi. Xususan, saylov qonunchiligi va siyosiy partiyalar faoliyatiga bag‘ishlangan 5 ta maxsus teleko‘rsatuvning o‘ttizdan ortiq soni markaziy davlat telekanallari, mahalliy telekanallarda hamda radioeshittirish shaklida tomoshabinlarga yetkazildi. Tashkil etilgan 8 ta markaziy va viloyatlardagi 14 ta hududiy teledebat nomzodlarni aholining ichiga kirib borishiga yordamchi bo‘ldi.

Internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda saylov jarayonlari, siyosiy partiyalar faoliyatini yoritish bo‘yicha jami 116 mingdan ortiq material, xususan, 5 ta markaziy va 17 ta hududiy nodavlat telekanal hamda 10 ta nodavlat radiokanalda 400 dan ortiq mediamaterial uzatildi. Bu kabi sa’y-harakatlari etangi kunimizga daxldor bo‘lgan qonunlarni ishlab chiqishda ishtirok etadigan munosib nomzodlarni tanlash yo‘lidagi fuqarolik burchimiz.

YXHT DIHHBning saylovlarni kuzatish xalqaro missiyasi tomonidan bildirilgan fikrlar ham bu yilgi saylov o‘zgacha ruhda o‘rganini anglatadi. Xususan, ma’lumotda keltirilishicha, “Ijobiy tashabbus sifatida beshta xususiy telekanal hamkorlikda barcha partiya vakillari o‘rtasida har hafta beshta debat tashkil etib, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri efitra uzatildi. Debatlar nomzodlarga o‘z g‘oyalarni yetkazish va dasturlarini muhokama qilish uchun yaxshi platforma bo‘ldi. Milliy media birlashmasi va Xalqaro press-klub tomonidan beshta xususiy telekanal (Sevimli, UzReport, ZO‘R TV, MY5 va Renessans TV) bilan birgalikda jonli efitra davomida faqat ayol raqiblar va ingliz tillarga, shuningdek, jahon va xorijiy tillarga sinxron tarjimoni taqdim etish orqali bu jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shdi. Mazkur debatlar Telegram va YouTube da ham to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatildi, ularida imo-ishora tilidan ham foydalanildi”.

Bu fikrlar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan, aholi turmushi farovonligi uchun mehnat qilayotgan quvntdoshlarimiz va ular qatorida bizni ham yordam berdi.

Bu yilgi saylov doirasida tashkil etilgan debatlarining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, bitta teledebat davomida faqat ayol raqiblar o‘zaro bahslashdi. Bu saylovlar tarixida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod 5 ayol ishtirok etgan ilk teledebat bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, yuksak maqsad — demokratik va erkin yangi O‘zbekistonni barpo etish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish, huquq va manfaatlarimiz to‘liq ta’minlanishi yo‘lida shu yurtda yashayotgan barchamizning ishtirokimi muhim. Biz OAV vakili sifatida ma’lumotlarni xolis yetkazishga harakat qilamiz. Tanlov esa fuqarolik burchini his qilgan, uning fikri, mas‘uliyati ko‘p narsalarni o‘zgartirishi mumkinligini bilgan har bir insonning o‘z ixtiyorida.

Ishonamiz, siyosiy partiya vakillari, nomzodlar Saylovoldi dasturida belgilangan va xalq oldida va‘da bergan takliflari, g‘oyalarni amalga oshiradi. Muhimi — saylovchilarning ishonchini oqlash. Buni esa vaqt ko‘rsatadi.

Soʻnggi yillarda bozor mexanizmlariga asoslangan tizimli islohotlar sabab sohaga yangicha ruh kirib keldi.

Taraqqiyot odimlari

UY-JOY BOZORI:

MOHIRONA SIYOSAT MAHSULI

Boshlanishi 1-betda

Mutasaddi turar joy sotib oluvchi aholiga kredit foizini qanchadan qilsa maʼqul kelishini, bu borada soʻrovnoma oʻtkazilganini, lekin uning natijalari asosida biror xulosa chiqarish qiyin ekanini ham bildirgandi.

Shunda ishtirokchilar tomonidan tizimda erkin raqobat sharoiti yaratilayotgan ekan, kredit foizlarini ham bozor hal qilishi, bu masalada banklarga erkinlik berish lozimligi borasida takliflar boʻlgandi.

Oradan qisqa vaqt oʻtgan boʻlsa-da, ortga nazar solar ekanmiz, buni yordam berish, qurilish sohasidagi islohotlar bugun samarasini berayotganini anglaymiz. Yaqin oʻtmishga qadar viloyatlarni qoʻya turaylik, azim Toshkentda ham uy-joylar qurilmasdi. Bunyod etilganlari ham qimmat va oddiy aholi uchun bu uylarga yetishish ushalmas orzu edi.

Yunus BOʻRONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

30 ming oilaning orzusi ushaldi

2017-2018-yillarni yaxshi eslayman. Poytaxtning Sergeli tumaniga yondosh hududda yangi uylar qurilishiga start berildi.

Bir oilani bilaman. Uch xonali uyga tanishim ikki kelin tushirgandi. Tasavvur qilyapsizmi, katalakday xonadonda uch oila yashardi. Yangi uy olishga qurbi yetmasdi. Yillar davomida ilojisizlikdan, imkonsizlikdan bir uyda yashashga mahkum edi ular.

Yangi hayot tumanida qurilgan uylarga birinchilardan boʻlib oʻsha tanishimning ikki oʻgʻli oilasi bilan koʻchib kirdi. Endi bu oilaning quvonch-u shodliklarini tasavvur qilavering.

Qisqa muddatda 500 dan ziyod koʻp qavatli bino qad rostladi. Oʻsha paytda OAVda eʼlon qilingan maʼlumotlarga koʻra, uy-joyga kuchli ehtiyoji bor 30 mingdan ortiq oila yangi uylarga koʻchib oʻtdi. Shuncha oilaning baxti toʻkis boʻldi. Yillar davomida orzu qilgan niyatlariga erishdi.

Oʻtgan qisqa davrda shahar yonida shaharcha qad rostladi. Baland-baland imoratlar yonida bolalar



maydonchalari, maktablar, bogʻchalar qurildi. Koʻkalamzorlashtirildi. Daraxtlar ekildi. Yangi tortilgan metro yoʻnalishi Yangi hayot va Sergeli tumanida



yashovchi minglab aholiga qulaylik tugʻdirdi. Bugun bu yerga kelgan odam biladiki, bir inson baxtli va farovon yashashi uchun neki zarur boʻlsa, barchasi yaratilgan.

Eng yaxshi investitsiya

Agar xohish-istak boʻlsa, hamma narsani oʻzgartirsa boʻlar ekan. Soʻnggi yillarda bozor mexanizmlariga asoslangan tizimli islohotlar sabab sohaga yangicha ruh kirib keldi. Aynan uy-joy qurilishiga ixtisoslashtirilgan yangi tadbirkorlik subyektlari paydo boʻldi. Tadbirkorlar hech ikkilanmay sohaga pul tika boshladi. Odatda odamlar pulini yaxshi foyda keltiradigan biznesga sarflaydi. Shunday tizim yaratildiki, kam taʼminlangan oilalarda ham uy-joy sotib olish imkoniyati paydo boʻldi. Odamlar ortiqcha jamgʻarmalarini istiqbolli investitsiya sifatida hech ikkilanmay turar joyga yoʻnaltirmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, oʻtgan davrda barcha manbalardan 100 trillion soʻm mablagʻ hisobiga hududlarda 6 mingta koʻp qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali boʻldi. Daromadi yuqori boʻlmagan 45 mingta oilaga boshlangʻich badal va foiz toʻlovi uchun 2,4 trillion soʻm subsidiya berildi.

Jumladan, oʻtgan yili mamlakatimiz boʻyicha 85 mingta yoki 2022-yildagiga nisbatan 1,5 barobar koʻp xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion soʻm ipoteka krediti ajratildi.

Aholi soni oʻsishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Bu yil ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbalardan 22,5 trillion soʻm yoʻnaltirildi. Jumladan, ipoteka kreditlari uchun qariyb 10 trillion soʻm, daromadi

yuqori boʻlmagan 20 ming oilaga boshlangʻich badal va foiz toʻlovini qoplash uchun 2,3 trillion soʻm beriladi.

Putrat tashkilotlarining aylanma mablagʻini koʻpaytirish uchun 500 milliard soʻm resurs yoʻnaltirildi. Bunda yillik 16 foiz stavkada 12 oylik imtiyozli davr bilan 18 oyga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Qurilish ishlari hamda aholining uy-joy sotib olishi uchun ham yana qoʻshimcha yengilliklar yaratilmoqda. Xususan, endi 5 qavatli uylarni barpo etishga kamida “qoniqarli” va 9 qavatli uylarga oʻrta qoniqarli” reytingiga ega boʻlgan pudratchilar jalb qilinadi. Bu qoʻshimcha 2 mingga yaqin pudratchi yoʻl ochib beradi.

Turar joylar qurilishida “yashil” standart joriy qilinmoqda. U asosida bunyod etiladigan uy uchun pudratchilarga kreditlar bir foiz past, yaʼni yillik 15 foiz stavkada berilmoqda.

Kambagʻallikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida oʻz hovlisida uy qurish va taʼmirlashga 120 million soʻmgacha ipoteka krediti ajratish yoʻliga qoʻyildi. Bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha bandi budjetdan qoplab beriladi.

Aholiga bu borada koʻmaklashishda Iptekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tashkil etildi. Oʻtgan uch yilda uning kredit portfeli 3 trillion soʻmdan oshdi.

“Oʻtgan davrda barcha manbalardan 100 trillion soʻm mablagʻ hisobiga hududlarda 6 mingta koʻp qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali boʻldi. Daromadi yuqori boʻlmagan 45 mingta oilaga boshlangʻich badal va foiz toʻlovi uchun 2,4 trillion soʻm subsidiya berildi.

Islohot ish bermoqda

Yaqinda Qashqadaryoga mashinada borib keldim. Oʻsha tomonlarga yoʻli tushganlar eʼtibor qilgan boʻlsa, biladi: Jizzax dovonidan tepaga chiqishda oʻng tarafda togʻ yonbagʻirlarida 16 qavatli binolar qad rostlamogʻda. Oldin tap-taqr tepaliklar oʻrta bugun zamonaviy shaharcha — “Yangi Oʻzbekiston” massivi bunyod etilmogʻda. Dastlab qurilishi boshlanganida kommunikatsiya tarmoqlaridan, aholi yashash manzillaridan uzoqda shuncha mablagʻ sarflab qurilayotgan uylarni birov sotib olarmikan, birov koʻchib kirarmikan, degan oʻy ham oʻtgan rost. Yaqinda eshitishimcha, bu majmuadan xonadon sotib olish uchun odamlar navbatda turgan ekan. Bitgan uylar oldida koʻplab mashinalar turganiga guvoh boʻldim. Deyarli barcha uylarning chirogʻi yonib turibdi. Demak, odamlarda yangi meʼmoriy yechimlar asosida

qurilgan uylarda yashash ishtiyoqi kuchaymogʻda. Eng quvonarlisi, odamlarning bunga qurbi yetaypti, xarid qobiliyati yuksalypati.

Bugun qarashlar oʻzgardi. Odamlarda hammasini davlat qilib berishi kerak, degan tushuncha unutilmogʻda. Davlat bugun uy-joy qurmayapti, xususiy tadbirkorlar bunyod etyapti. Tizimda ishbiarmonlik, sogʻlom raqobat va shaffoflik muhiti yaratildi. Byurokratik toʻsiqlar olib tashlandi yoxud mavjud rasmiyatchiliklar soddalashtirildi. Raqamlashtirildi. Uy-joy qurilishi bozoriga kirmoqchi boʻlgan tadbirkorga faoliyat yuritishga keng yoʻl ochib berildi. Bu oʻrinda davlat bosh islohotchi sifatida oʻzining mohirona islohotini tizimga muvaffaqiyatli tatbiq etadi. Bugun uning mahsulini sohaga daxldor boʻlmaganlar ham oʻz hayoti misolida his qilmoqda.

Ezgu maqsad nega oʻzini oqlamadi?

2000-yillar boshlarida qishloqlar qiyofasini oʻzgartirish uchun keng koʻlamda namunaviy loyihalar asosida har bir tumanda uylar qurildi. Orolboʻyining eng olis qishloqlaridan tortib azim poytaxtga yondosh tumanlarda ham bir xil loyihadagi, tomi qizil profnastil bilan yopilgan uylar qurilishiga jadal kirishildi. Hovli tipidagi bu uylarda gaz, elektr energiyasi, ichimlik suv taʼminoti boʻlishi lozimligi koʻp aytili.

Oʻsha paytda hukumat uy-joyning narxini imkon qadar tushirish uchun quruvchi-tadbirkorlarga qurilish materiallarini yarim bahosida berdi. Namunali turar joylarni sotib oluvchilarga uzoq muddatli past foizli kreditlar taklif etildi. Mol-mulk, yer soligʻi, kredit

toʻlovlarni qaytarishga yoʻnaltirilgan mablagʻ daromad soligʻidan ozod qilindi.

Leikin shuncha imtiyozu yengilliklarga qaramay, odamlar bu uylarni sotib olishga unchalik shoshilmasdi. Negaki ular oʻta sifatsiz qurilgandi. Hali bitmasdan devorlari nurab ketardi. Qolaversa, gazlashmagan, suv tarmogʻi yetib bormagan, ichimlik suv tugul oqar suv boʻlmagan hududlarda ham hisobot uchun uylar qurib tashlandi.

Shunday davrlar boʻldiki, bu tipdagi xonadonlar tadbirkorlar, amaldorlar, qoʻyngiki, puli bor odamlarga majburiy “oʻtkazildi”. Lavozimidan yoki biznesidan ayrilib qolishdan qoʻrqqan odam borki, bu uylarni sotib olishi shart edi.

Ularni sotib olganlarning deyarli koʻpchiligi oʻlida-joʻlda qolib ketgan qurilishni oʻz hisobidan yakunladi yoki qaytadan taʼmirlashga majbur boʻldi.

Aslida, qishloqlar qiyofasini oʻzgartirishga qaratilgan bu ezgu maqsad nega oʻzini oqlamadi?

Nazarimizda, tizimda erkin raqobat yoʻq edi. Tenderlarsiz, sohada hech qanday tajribaga ega boʻlmagan tadbirkorlar namunali uy-joylar qurilishiga jalb etildi. Pirovardida uy-joy qurilishida korruptsiya chuqur avj oldi. Qolaversa, uylarning bir xil loyihalar asosida qurilishi ham odamlarning namunali uy-joylarga qiziqishi kamayishiga xizmat qilgan boʻlsa, ajabmas. Bundan tashqari, olis qishloq joylarda qurilgan hovlilarga eng birlamchi ehtiyoj — suv, gaz kabi kommunikatsiya tarmoqlari yetib bormagandi.

2024-yil — Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili



TADBIRKORLIK —

DOIMIIY EʼTIBORDAGI TARMOQ

Jahon amaliyotida tadbirkorlar oʻzgarishlar omiliga qiyoslanadi. Bu — toʻgʻri baho. Chunki ishbiarmon bozorga yangiliklar olib kirish barobarida tez moslashuvchan ham boʻladi. Eng koʻp ish yaratuvchi tarmoq ham tadbirkorlikdir. Hozir mamlakatimizda jami sanoat mahsulotining uchdan bir qismi, qishloq xoʻjaligi mahsulotining qariyb hammasi ishbiarmonlar hissasiga toʻgʻri kelayotgani, ish bilan band aholining salkam sakson foizi mazkur tarmoqda mehnat qilayotganini inobatga olsak, yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilayotgani mazmun-mohiyati ayon boʻladi.

Jumladan, shu kunlarda tashqi reklama obyektlarini oʻrnatish borasida fikrlar boʻlyapti. Aytish joizki, mazkur yoʻnalishdagi ishlar Oʻzbekiston Respublikasining “Reklama toʻgʻrisida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish toʻgʻrisida”gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Shu bilan birga, oʻrnatilgan tashqi reklama obyektlari qonunchilik talablariga muvofiq ravishda bajarilmasa, konstruksiyalar tashqarisida joylashtirilgan plakatlar va eʼlonlar noqonuniy hisoblanishi hamda belgilangan tartibda ularning egalari hisobidan demontaj qilinishi lozimligi koʻrsatilgan.

Aniqlik tadbirkorlarning qonun talablariga muvofiq oʻrnatilgan tashqi reklama obyektlari noqonuniy buzilayotgan holatlar mavjud boʻlsa, 11-00 qisqa raqami orqali Biznes-ombudsman xabar berishlari mumkin.

Oʻzbekiston 2027-yilga borib, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80, eksportdagi hissasini esa 60 foizga yetkazish kabi ulkan maqsadlarni qoʻygan.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga iqtisodiy-otining tayanchi sifatida qaralib, biznes muhiti tobora qulaylashtirib berilayotgani yaqinda Prezidentimiz huzurida tadbirkorlar huquqiy himoyasini kuchaytirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishish chogʻida ham taʼkidlandi.

Yurtidoshlarimizda biznesga qiziqish ham, manfaatdorlik ham ortib borayotir. Taqdimotda davlatimiz rahbariga mazkur masalalar yuzasidan qator takliflar bildirildi. Unga koʻra, kelgusi yilda biznes vakillari faoliyatiga oid bir qancha yangiliklar joriy etiladi. Xususan, ishbiarmonlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida roʻyxatdan oʻtmasdan amalga oshirganlik uchun moliyaviy jarima bekor qilinib, maʼmuriy javobgarlik saqlab qolinadi.

Raqamli markirovkalash qoidalari hamda fiskal belgilarni aks ettirish tartibini buzish, xodimlar sonini yashirish kabi huquqbuzarliklar uchun esa maʼmuriy jazo chorasi bekor qilinib, moliyaviy jarima qoʻllaniladi.

Tadbirkorlarning oʻzaro kelishuv asosida nizolarni hal qilishini ragʻbatlantirish, shuningdek, sudlarda ish yuklamasini

kamaytirish maqsadida 2025-yil 1-martdan sudda ish yuritish taraflari kelishuvi bilan tugatilsa, davlat bojining bir qismi qaytarib beriladi. Bunda birinchi instansiya sudida toʻlangan davlat bojining 70 foizi, apellyatsiya va kassatsiya tartibidagi sudda toʻlangan davlat bojining 30 foizi qaytariladi.

Qolaversa, tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilishga vakolatli organlar va nazorat sohalari roʻyxati tasdiqlanmogʻda. Bu — roʻyxatga kiritilmagan masalalar boʻyicha ular faoliyatini tekshirish taqiqlanadi, degani. Shu bilan birga, ilgari nazorat funksiyalari tarqoq hujjatlarda boʻlardi. Endi tadbirkorlar ushbu maʼlumotlarni bitta roʻyxatdan olishi mumkin.

Tadbirkorlar faoliyatida oʻtkaziladigan barcha tekshiruv “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida roʻyxatga olish orqali Biznes-ombudsman xabardor etish tartibida amalga oshiriladi. Qonunchilik hujjatlariga koʻra, Biznes-ombudsman bilan kelishmasdan va xabardor qilmasdan tekshiruvlar oʻtkazishga ruxsat berilgan holatlar bekor qilinadi. Shu bilan birga, kameral soliq tekshiruvidan tashqari 15 turdagi tekshiruv haqida jarayon boshlangandan soʻng 24 soat ichida xabar berilishi kerak.

Bundan tashqari, kelgusi yil avvalidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi doirasida tadbirkorlik subyektlari 3 toifaga ajratilib, tekshiriladi. Birinchi toifada xavf darajasi past boʻlsa, nazorat qiluvchi organlar tekshiruv oʻtkazmaydi. Ikkinchi toifaga xavf darajasi oʻrta va yuqori boʻlganlar kiradi hamda ular



profilaktika tadbirlari yoki tekshiruv oʻtkaziladi. Profilaktika doirasida cheklist toʻldirish orqali qonunbuzilishlarga olib kelishi mumkin boʻlgan kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etishga koʻmaklashiladi.

Uchinchi toifada esa aniq faktlar boʻyicha fuqarolar hayoti va manfaat, jamoat va davlat xavfsizligi, atrof-muhitga zarar yetkazish xavfining oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan tekshiruvlarni “Xavfni tahlil qilish” tizimi natijalaridan qatʼi nazar, oʻtkazishga ruxsat etiladi.

Tadbirkorlar faoliyatida noqonuniy tekshiruvlarning oldini olish uchun esa nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvchi xodimlari har ikki yilda Biznes-ombudsman huzurida tashkil etiladigan oʻquv kurslarida malaka oshiradi. Bu bilan ish sifati va unumdorligi oshiriladi. Noqonuniy tekshiruvlar, tadbirkorlar shikoyati,

xodimlar attestatsiyasi natijalari kabi mezonlar boʻyicha nazorat qiluvchi organlar reytingi tuziladi.

Talab va taklif — bozor qonuniyati. Mamlakatimizda ishbiarmonlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni ham shunga oʻxshatish mumkin. Avvalo, qulay sharoit yaratishga harakat qilinyapti. Tadbirkorning faoliyatiga toʻsiq boʻlayotgan muammo va kamchiliklar eshitilyapti, chuqur oʻrganilyapti. Bu jarayonda Prezidentimizning soha vakillari bilan har yili oʻtkazayotgan ochiq muloqoti katta ahamiyat kasb etyapti.

Joriy yil 20-avgust kuni Nukus shahrida davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida Biznes-ombudsman soha vakillarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy

hujjatlar loyihasini ishlab chiqish topshirigʻi berilgan edi. Xususan, tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, tadbirkorlik subyektlari uchun bitta huquqbuzarlik boʻyicha bitta javobgarlik belgilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish topshirilgandi. Taqdimotda koʻrsatib oʻtilgan vazifalar ana shu topshiriqlar ijrosi samarasidir.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda biznesni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan 3 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Joriy yilning toʻqqiz oyida esa “Tadbirkor virtual ofisi” axborot portali orqali kelgan 7113 murojaatda 8131 ta masala koʻtarildi. Ular tahlil qilinsa, 17 foizi bank va kredit, 11 foizi soliq, 8 foizi mansabdor shaxslarning xatti-harakati, 8 foizi yer maydoni yoki bino ajratish, kadast, 8 foizi sud va boshqa organ hujjatlarini ijro etish, 7 foizi infratuzilmaga oidligi ayon boʻladi.

Murojaatlar asosida tadbirkorlarga 10,9 milliard soʻm miqdorida asossiz toʻlangan soliq mablagʻi qaytarildi, 4,99 milliard soʻmdan ortiq kredit ajratildi, 3,81 milliard soʻm mablagʻ undirilishida yordam berildi. Aniqlangan qonun buzilishi holatlari boʻyicha 8 ta taqdimnoma kiritilib, 122 mansabdor shaxsga nisbatan maʼmuriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Tekshirish oʻtkazuvchi xodimlarning malaka va professionallik darajasini baholash maqsadida nazorat organining 9454 xodimi attestatsiyadan oʻtkazilib, 76 foizi tadbirkorlar faoliyatida tekshiruv oʻtkazishda yetarli malakaga ega deb topildi. Oʻtgan vaqtda tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish borasida Biznes-ombudsman tomonidan 1836 ta taʼsir chorasi koʻrildi. Shundan 47 ta daʼvo arizasi (shikoyat), 38 ta taqdimnoma, 24 ta xulosa, 6 ta ogohlantirish va 1721 ta maʼmuriy chora qoʻllangan. Natijada sudlar tomonidan 15,1 milliard soʻmlik daʼvo tadbirkorlar foydasiga hal etilgan, 25 masʼul shaxsga intizomiy jazo qoʻllangan.

Dilmurod QOSIMOV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik
subyektlarining huquqlari va
qonuniy manfaatlarini himoya qilish
boʻyicha vakil



www.yuz.u



ficial



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 14-noyabr, 231-son

Sport

Dunyo miqyosida sportning o‘q otish turi bilan shug‘ullanuvchilar ko‘payib bormoqda. Mamlakatimizda ham sportning bu turiga qiziquvchilar ko‘p. Biroq buning uchun sharoit, moddiy-texnik va huquqiy baza yetarli emas. Natijada yurtdoshlarimizning ushbu sport turi bo‘yicha qobiliyatini namoyon qilish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish imkoniyati cheklanib qolmoqda.

OLIMPIYA VA PARALIMPIYA HARAKATI

IQTIDORLI YOSHLARNI
PROFESSIONAL ETIB
TARBIYALASHGA XIZMAT QILADI



Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-noyabrda “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ko‘plab muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qarorga ko‘ra, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida bosqichma-bosqich 10 metr masofaga o‘q otish sport bazalari tashkil etiladi hamda zamonaviy sport anjomlari va inventarlar bilan jihozlanadi. 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida “sport faoliyati: o‘q otish va stenddan o‘q otish” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi ochiladi.

Shuningdek, o‘q otish sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalar trenerlari, seleksionerlari, hakamlari va boshqa mutaxassislari kasbiy mahoratini oshirib borish maqsadida mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida seminar, trening va mahorat darslari o‘tkazib boriladi.

Huquqiy-me‘yoriy hujjatga muvofiq, 2025-yildan boshlab har yili harbiylashtirilgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘rtasida o‘q otish sport turlari bo‘yicha “Mergan” kubogi, o‘q otish sport turlari bo‘yicha

sportchi va mutaxassislar tayyorlashda juda katta turki bo‘ladi.

— Andijon hamda Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suvga sakrash sport turini yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi, — deydi O‘zbekiston suv polosi terma jamoasi bosh murabbiyi Akbar Sodiqov. — Ushbu markazlarda suvga sakrash sport turi bilan shug‘ullanish uchun zarur imkoniyat bor. Kelgusida boshqa hududlarda ham sportning bu turi bilan shug‘ullanish uchun sharoit yaratiladi. Xususan, 2026-yildan boshlab tajriba tariqasida Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatidagi mahallalarda 6x15 metr o‘lchamli suzish havzalari barpo etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida “Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiyoti” hamda “Eshkak ehash sport turlari nazariyasi va uslubiyoti” kafedralari ochiladi.

2025-yildan boshlab har yili sinxron suzish sport turi bo‘yicha Toshkent shahrida “Suv parisi” xalqaro turniri, suzish sport turi bo‘yicha Samarqand viloyatida Silk Water xalqaro turniri, mamlakatimizning barcha hududida yoz mavsumida o‘tkaziladigan World Aquatics



belgilangan yosh toifalari o‘rtasida O‘zbekiston chempionati o‘tkaziladi. Mazkur qarorning eng muhim jihati shuki, bolalar sportidan tortib, olimpiada bosqichigacha bo‘lgan jarayon qamrab olingan.

Sportning o‘q otish turi kishidan xavfsizlik talablariga qat‘i rioya etish bilan birga muayyan psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishni ham talab etadi. Shu bois, endi tuman, shaharlardagi sport maktablarida bosqichma-bosqich o‘q otish sport turlari bo‘yicha sport guruhlari ochiladi. 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘quv dasturlari doirasida “O‘qotar va pnevmatik sport qurollarining taktik-texnik tavsiflari” amaliy mashg‘ulotlari kiritiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda harbiy qism, muassasalar, harbiy poligonlarning o‘quv-moddiy bazasidan foydalaniladi.

Mamlakatimizda yana bir sport turini rivojlantirish uchun tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, Prezidentimizning “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, zarur sport infratuzilmasi mavjud bo‘lgan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suv polosi va sinxron suzish guruhlari tashkil etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, yuqori malakali

Day ommaviy sport festivali, suv sporti turlari bo‘yicha O‘zbekiston chempionati o‘tkazib boriladi.

Shu bilan birga, keyingi yili 1-iyungacha qadar davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy investorga beriladigan suv havzalari ro‘yxati shakllantiriladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkaziladigan suv havzalari faoliyati mazkur qaror asosida tashkil etiladi.

Qaror bilan 2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida suv sporti turlari infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha manzilli dastur tasdiqlandi.

2025-2027-yillarda milliy terma jamoalar trenerlari, shuningdek, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida suv sporti turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan trenerlar xorijiy davlatlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuboriladi.

Ushbu ikki qaror aholining keng qatlamini sport turlariga jalb qilish, mahoratli sportchilarni saralab olish, xalqaro musobaqalarda yurtdoshlarimiz ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson qadri uchun

ULAR HAM BAXTLI YASHASHGA HAQLI

Ijtimoiy masalalar doim dolzarb bo‘lib kelgan. Aholi orasida e‘tiborga muhtoj, nogironligi bor, biroqning ko‘magi bilangina harakat qiladigan yoki moddiy imkoniyati cheklangan, oilaviy muhitdan kelib chiqib, kasb-hunar egallay olmay, turmushning “mush”lari oldida yer chizib qolgan insonlar bor. Ular ham biz yashayotgan jamiyatning a‘zosi, barcha kabi yaxshi yashashga haqli.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY
AGENTLIGI

Xo‘sh, bu qatlam, ularning muammolari bilan kim yoki qaysi tashkilot shug‘ullanadi?

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni aynan shu yo‘nalishdagi harakatlarni tizimlashtirish, mehr-muruvvatga muhtoj qatlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘ldi.

Qisqa muddatda joylarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilib, himoyaga muhtoj fuqarolarning faol hayotga qaytishi, ularga boshqalardan kam emasligini anglatish,

ehtiyojlarini ta‘minlash ishlari boshlab yuborildi.

Buxoroda ham bu yo‘nalishda ko‘zga ko‘rinarli yumushlar qilindi. Dastlab hududlardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi 12 toifa bo‘yicha qayta xatlovdan o‘tkazildi. Bunda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, mahallalardagi hamshiralar (patronaj) xizmatidan ham foydalanildi. Hozircha xatlovda ijtimoiy himoyaga muhtoj 2581 kishi qamrab olindi.

Qadrdonlari ovozi ESHITA BOSHLADI

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar tomonidan aholiga 49 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatilmoqda. Buxoroda bu yo‘nalishda joriy yilning o‘tgan davrida kelib tushgan murojaatlar asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (oilalar) ga 3,5 mingdan ortiq keys ochilib, shundan mingdan ortig‘iga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatildi.

Bugungi kunda o‘zgalar parvarishiga muhtoj 332 nafar yolg‘iz keksa va nogironligi bo‘lgan shaxsga tegishli nafaqalar tayinlanishi va 336 nafariga ijtimoiy va maishiy xizmatlar ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilib, ularga 89 nafar ijtimoiy xodim assistenti sifatlari xizmat ko‘rsatib kelmogda.

Jondor tumanidagi Sho‘robod mahallasida yashovchi 64 yoshli Qo‘ldosh aka Jumayev uzoq yillar davomida davlat ishxonasida ishlab, nafaqaga chiqqan. Ayoli Dilorom Qurbonova bilan 4 farzandni voyaga yetkazib, hozir 11 nevaraning bobosi va buvisi bo‘lib umrguzaronlik qilaypti. Ammo 7 yil oldin Qo‘ldosh aka jarrohlik amaliyotida bir buyragidan ayrilgani bois, yondosh kasalliklar sabab ehashish qobiliyati juda pasayib ketadi. Bu esa uning oila a‘zolariga ham noquyallik tug‘diribgina qolmay, o‘zining ham atrofdegilar bilan muloqot qilishiga xalaqit beradi. Natijada u imkon boricha uydin chiqmaslikka harakat qiladi. Mahallada kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim Qo‘ldosh akaning murojaatini o‘rganib, unga ehashish moslamasi hamda qon bosimini doimiy kuzatish uchun ovozli tanometr olishda yordamlashdi.

— Rostini aytganda, juda tushkunlikka tushib qolgandim, — deydi Qo‘ldosh aka. — Yaqinlarninging ovozi ehsitilmaysan, faqat sukunatda yurasan. Atrofdegilaring sen bilan gaplashish tobora qiyinlashib borayotgani

uchun, yaxshisi gaplashmaslikni ma‘qul ko‘ra boshlaydi. Yig‘inlarda esa o‘zining xuddi ortiqchadek sezasan. Chunki hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Shunday qolib ketaman, endi eshitmayman deb o‘ylagandim. Yo‘q, shukr, mana, “Inson” markazidan ijtimoiy xodim kelib, shu ehashish moslamasini berdi-yu, hayotimda katta o‘zgarish bo‘ldi. Xursandman. Endi eng past tovushlargacha eshitayman.

Albatta, bundan otaxonning oila a‘zolari ham xursand. Keksalikda bir-biriga suyanib qolgan ahl oila vakillarining suhbatlari yana qayta jonlandi.

Qorako‘l tumanidagi Xo‘jakon mahallasida yashovchi nogironligi bo‘lgan Hikmat Bobomurodov 24-yil madaniyat sohasida faoliyat yuritgan. Falokat oyoq ostida deganlaridek, bir kuni Hikmat aka tomdan yiqilib tushadi. Shu bo‘yi goh shifoxonada, goh uyda 8 oy to‘shakka mixlanib yotib qoladi. Bu orada ishdan ketishga ham majbur bo‘ladi. Oyoq suyaklari jarohati og‘ir bo‘lgani bois, deyarli 10 yil hassaga suyanib yuradi. Lekin turmush o‘rog‘ining daldasi va to‘rt farzandning ko‘magi bilan yashash uchun o‘zida kuch topadi.

Yaqinda u tumanidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga ishga joylashtirish to‘g‘risida murojaat qildi. Buni qaragich, oradan hafta o‘tmay, murojaati ijobiy hal qilinib, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda madaniyat markaziga ishga joylashtirildi.

Hozir 10 nafar shogirdga musiqa sirlarini o‘rgatib kelayotgan Hikmat aka “Inson” markazi huzurida yangi ansambl tuzishini ham niyat qilgan. Nafaqasiga qo‘shimcha ravishda olayotgan maoshi esa oilasining moddiy ta‘minotini yaxshilashga xizmat qilaypti.

Yolg‘iz otaxon ijtimoiy HIMOYAGA OLINDI

Joriy yil may oyidan boshlab yaqin qarindoshlari bo‘lmagan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga kompensatsiya nafaqalari to‘lab berish tizimi yo‘lga qo‘yilib, hozir ushbu xizmat bilan 332 nafar muhtoj shaxs qamrab olindi.

Azim Gadoyev Kogon shahrining Istiqol mahallasida istiqomat qiladi. Uzoq yillar avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanib kelgan va hozir nafaqada bo‘lgan otaxonning ikki qizi turmushga chiqqan, chet elda yashaydi. Shu sababdan Azim ota yolg‘iz va parvarishga muhtoj. Kogon shahrining Istiqol va Bunyodkor mahallalarida kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim Shahzod Dilov aholi muammolarini o‘rganish jarayonida Azim otaning xonadonida bo‘lib, uning yolg‘izligi, qarovchiga muhtojligini aniqladi. “Keys-menegment” usuli asosida otaxonning ijtimoiy ahvoli har tomonlama baholandi va unga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar rejasini belgilab olindi. Natijada otaxonga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi xodim birlashtirildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan respublika bo‘yicha byudjet tashkilotlariga nogironligi bo‘lgan 20 ming, banklarga ming shaxsni ishga joylashtirish vazifasi yuklatilgan edi. Shundan so‘ng elektron so‘rovnomasida xatlov o‘tkazilib, davlat tashkilotlarida ishlab istagi bor ishsiz, nogironligi bo‘lgan 73 ming shaxsning ma‘lumotlari shakllantirildi.

Ular orasida bolalikdan nogironligi bo‘lgan, Kogon shahrining Mirzo Ulug‘bek mahallasida istiqomat qiluvchi Umida Raupova ham bor. U 1974-yilda tug‘ilgan, texnikumni kutubxonachilik mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan. 23 yil davomida umumta‘lim maktablarida kutubxonachi bo‘lib ishlagan. Umida opa yaqinda nogironligi bo‘lgan shaxslar

uchun vacancy.args.uz platformasi orqali e‘lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlaridan biriga ariza topshirib, ochiq tanlovda suhbatdan o‘tdi va Kogon shahridagi 9-umumta‘lim maktabiga kutubxonachi vazifasiga ishga qabul qilindi.

— Uzoq yillar davomida soham bo‘yicha ishladim, — deydi Umida Raupova. — So‘nggi yillarda esa sog‘lig‘im yomonlashib, ishdan ketishga majbur bo‘lgan edim. Davolanishlar natijasida o‘zimga kelgan bo‘lsam-da, ish topish muammo bo‘ldi. Hududimizdagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari barcha korxona va tashkilotlarda men kabi nogironligi bo‘lganlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari e‘lon qilinganini aytganida qiziqib ko‘rdim. Ariza qoldirdim va suhbat asosida ishga qabul qilindim. Bir o‘g‘lim bor. Hozir Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tahsil olaypti. Shu o‘g‘limning kelajagi uchun ham ishlashim kerak. Men ham jamiyatning muhim bo‘lagi ekanimni yana bir bora anglab, kasallik bilan kurashishga aynan mana shu ishim yordam beryapti.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan viloyatdagi yakka-yolg‘iz va yolg‘iz yashovchi 668 nafar keksa va nogironligi bor shaxsga jamiyat hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda o‘zlarining hayotiy ehtiyojini mustaqil ta‘minlash imkoniyatini kengaytirish maqsadida ularga tegishli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda. Shuningdek, “Inson” markazlarida shartnoma asosida pulli xizmat ko‘rsatish tizimi joriy qilindi. O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksa va nogironligi bo‘lgan 210 nafar shaxs bilan shartnoma tuzilgan, 116 nafariga belgilangan me‘yor va tartibga asosan 17,8 million so‘m mablag‘ ko‘chirilgan hamda ijtimoiy va maishiy xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda.



Ular nafaqadan tashqari MAOSH HAM OLADI

Peshku tumanidagi Bog‘imuso mahallasida yashovchi 21 yoshli Nurmuhammad Ubaydullayev ikkinchi guruh nogironi. Buxoro davlat universiteti talabasi bo‘lgan Nurmuhammad ayni damda bankda ishlayapti.

— Mutaxassisliligim bo‘yicha ishga kirdim. “Inson” markazi xodimlari hujjatlarimni vacancy.args.uz orqali topshirishga ko‘maklashdi. Suhbatdan o‘tdim. Ishimdan mamnunman. Nogironlik nafaqamga qo‘shimcha ravishda olayotgan maoshim oilamni moddiy tomondan bekamu ko‘st ta‘minlashga imkon beryapti, — deydi u.

Yaqinda Buxoro shahridagi 1-bolalar va o‘smirlar sport maktabida sportning parashaxmat turi bo‘yicha trener lavozimiga ishga kirish uchun ariza topshirgan nomzodlar bilan suhbat o‘tkazildi. Suhbat davomida ularning soha bo‘yicha malaka va tajribaga ega ekanini, bolalar bilan ishlay olish ko‘nikmasiga e‘tibor qaratildi. Ariza topshirganlar orasida ehashish va gapirishda nuqsoni bo‘lgan Hojiakbar Saidmurodov savollarga yaxshi javob berdi va sport bo‘yicha yutuqlarga egaligi bilan ajralib turdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 25 yoshli Hojiakbar bolalar va o‘smirlar sport maktabiga ishga qabul qilindi.



Umidjonning ORZUSI USHALDI

2024-yil 1-iyuldan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilishning texnik vositalari hamda protez-ortopediya moslamalarini xarid qilish bo‘yicha vaucher tizimi ishga tushirildi. Bugungi kunda 3101 ta vaucher shakllangan, shundan 2148 tasi buyurtma qilingan. Buyurtmaning 1933 tasi ta‘minlangan, 215 tasi esa jarayonda.

Buxorodagi 280 o‘ringa mo‘ljallangan “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar internat uyida 264 bola tarbiyalanmoqda. Ularning barchasi vasiylikka olingan, tibbiy ko‘rikdan ham o‘tkazildi.

Buxoro “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ayollar internat uyida O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli nuqsonlar bor nogironligi bo‘lgan ayollar to‘liq davlat ta‘minotiga olinib, ularga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatildi. Muassasa 300 o‘ringa mo‘ljallangan, hozir nogironligi bo‘lgan 305 ayol istiqomat qilmoqda. Ularga 204 xodim tomonidan tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatilayotir.

Nogironligi bo‘lgan ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida hozirgi kunda muassasada malakali vrach va hamshiralar xizmat qilib kelmogda. Muassasa kerakli dori-darmon bilan to‘liq ta‘minlangan. “Muruvvat” uyidagi ayollarning imkoniyatlariga qarab o‘quv, to‘garak xonalari tashkil etilgan. Chevarlik, pazandalik, to‘quvchilik, sataroshlik, rasm chizish, kutubxona, kompyuter to‘garagi xonalari to‘liq jihozlanib, foydalanib kelinmoqda.

Qorako‘l “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyida yashovchi 300 kishiga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatilmoqda. Vasiylikka olinganlar o‘rtasida aqliy rivojlanishida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lgan shaxslarning mehnat ko‘nikmalarini egallashi uchun muassasada 1 ta davolash-ishlab chiqarish (mehnat) ustaxonasi, 2 ta issiqxona, musiqa va shaxsha-shaxmat to‘garagi tashkil qilingan. Mehnat yo‘riqchilari tomonidan yengil mehnat ko‘nikmalarini bajarish va o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Vobkent tumanidagi Shifokor mahallasida yashovchi Umidjon To‘rayev ayni damda 20 yoshni qarshilagan, tengdoshlariga nisbatan aqlli, mulohazali va tadbirkor

yigit. Ota-onasi tashkil etgan “Umidjon market” savdo do‘konini marketing va bozor iqtisodiyoti talablari asosida yuritib kelayotgan qahramonimizda bolalikdan nogironlik mavjud. Biroq bu Umidjonning o‘qishiga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, rivojlanishda davom etishiga umuman to‘sqinlik qilmaydi. Uch o‘g‘ilning kattasi bo‘lgan Umidjonning otasi tadbirkor, onasi esa hamshira. Biznes, axborot texnologiyalari sohasiga qiziquvchi Umidjon ukalari Jasurbek va Alibekka ham kompyuter sirlarini o‘rgatib kelaypti. O‘zi esa ayni damda Toshkent davlat agrar universiteti 2-bosqich talabasi.

Umidjonni qiyinlab kelayotgan muammolardan biri uning elektron aravachaga muhtojligi edi. Chunki hozir masofaviy ta‘lim olayotgan yigit darslarda ishtirok etishi, turli o‘quv kurslarida malaka oshirishga borib-kelishi uchun ham bu moslamaga ehtiyoji juda yuqori. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaati besamam ketmadi. Yaqinda unga o‘zi istagidek elektron aravacha taqdim etildi.

Endi Umidjon bemalol harakatlanishi, o‘z ustida ishlashi, o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashi mumkin. Ta‘kidlash joizki, Umidjonning tadbirkorlik sohasidagi takliflari oqiboravchi savdo shoxobchasida tatbiq etilganidan so‘ng savdo hajmi 30-40 foiz oshganining o‘ziyoq uning keyingi muvaffaqiyatlari yanada yuksakroq bo‘lishidan darak beradi.

Viloyatda 3 ta ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 4 ta alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan maxsus maktab-internat faoliyat yuritmoqda. Ularda 1300 dan ziyod o‘quvchi viloyat psixologik-tibbiy pedagogik komissiyasi xulosasiga asosan ta‘lim olaypti.

Bundan tashqari, tuman (shahar)lardagi 22 ta umumta‘lim maktabida inklyuziv ta‘lim sinflari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 671 o‘quvchiga uyda yakka tartibda ta‘lim berilayotir.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu tizim aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qamrab olib, muammolariga yechim topish bilan shug‘ullanmoqda.

Obid QO‘LDOSHOV,
jurnalist

Nabixon Chustiy tavalludining 120 yilligiga

ADOLAT O'Z SO'ZIN AYTGANDA

SHOIR IJODI, HAYOT YO'LI VA ESDALIKLARI ORQALI BIZGA SABOQ BERMOQDA

Ma'mura ZOHIDOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Aruz vaznida o'ynoqi g'azallar bitib, ijodi orqali mumtoz adabiyot va bugungi kun o'rtasida ko'pri-kvosita bo'lgan benazir shoir Chustiy qanday umrguzaronlik qilgani, qalami tufayli boshiga ne savdolar tushganini adabiyot, ilm ahli yaxshi biladi. Biroq shoirning to'plamlarga kirmagan she'rlari, boshqalar bilan bo'lishilmagan xotiralari ham oz emas. Hamma shoirlarda bo'lgani kabi oxiriga yetmay qolgan she'rlar, tarjimalar Chustiyning farzandlari qo'lida saqlanadi. Bular orasida shoirning o'z qo'li bilan eski arab yozuvida bitgan xotiralari ham mavjud.



O'ldirsalar?! Ana shunday fikrlar miyamni chulg'ab olib, meni qattiq qiynar edi. Biz bu qishloqdan bo'sh joy topolmadik. Shunda dadamning birtanishi qishloq keksalari bilan maslahatlashib, masjid hujrasini bo'shatib berdi. Namoz vaqtida oilamiz ayollari hujrada bo'lardi, namozdan keyin esa masjid eshigini ichkaridan qulflab olardik. Ana shu "qoch-qoch" ahvol to'qqiz kun deganda tugadi. Barcha qochqin aholi oq bayroq ko'tarib, shaharga kirishi mumkin, degan xabar keldi. Buni eshitgan odamlar o'zaro: "Omon-omon bo'ldi", deyishardi. Biz ham el qatori aravamizning qozig'iga salladan oq bayroq taqib, asta shaharga kirib bordik. Omon-eson hovlimizga kirib qarasak, hammayoqni kuyindib bosib yotibdi, go'yo uyga o't tushib, butunlay kul bo'lgandek. Keyin bilsak, Qo'qon rastasi yonib, kulini shamol bu yerlarga uchirib kelgan ekan. Tezda hovliyu uylarni supurib-sidirib, joylashib oldik.

Valixon qori va men kasanachilik qila boshladik. Kasana — birovning tandasi (to'qiladigan matoning tarang tortilgan dastlabki iplari, ya'ni to'qiladigan matoning asosi)ni do'kon (yog'ochdan qilingan xonaki to'quv dastgohi) ga solib to'qishdir. Tanda egasiga to'qilgan matoning to'rtidan uch qismini berardik. O'shanda to'qiladigan matolarning iplari ham, dastgohlar ham tanda egasini bo'lib, uyimizda uch to'quv dastgohi (do'kon) ishlab turardi, natijada tirikchilimiz bir oz iziga tushgandek bo'ldi. Bundan tashqari, dehqonlar xirmon ko'targanda kosilarga xabar berardi, ularga bir yoki yarim g'alvirdan don in'om qilganda ham anchagina yordam bo'lardi.

1920-yili Chust, Namangan tomonlarda ocharchilik boshlanib, odamlar ko'rpachalik va ba'zi kiyimliklarni ozzina donga ham almashira boshladi. Men ham onamning topshiriqlari bilan bir qancha ko'ylaklik toza atlasni kirasi qilmagan (arzimagan) juvari va bug'doyga alishtirib keldim. Shu orada qishloqning shaharlik imomiga qatnab o'qishni boshladik. Qur'oni karimning qolgan qismini ana shu domla mudarrisligida o'qib tugatdim.

1921-yil qo'rboshilar kuchaygan yil keldi. Har kuni qishloqda bir-ikki kishini otib ketishar yoki biror boynoy unini talashar yoxud kimlaridir bog'lab olib ketishardi, keyin qishloq oqsoqollari ketidan borib, pul berib qurtarib kelishardi. Bunday voqealar uzluksiz bo'lib turardi. Ba'zan qizil askarlar ham qishloqqa kelib, qo'rboshilarga ovqat, yem-xashak berganlikda ayblab, bir necha odamni qamoqqa olib ketardi. Xullas, mullaqo tinchlik yo'q edi. Odamlar yurak oldirib qo'yg'anlaridan uylarining tomlariga tosh to'plab, kechalari o'sha yerda tunardi...

Qo'lyozma ustida ishlash, o'qishga urinish jarayoni davom etmoqda. Lekin uning keyingi qismida shoir qanday voqealarni bayon etgani hali aniqlanmadi. Uni tadqiq etib, keng omмага taqdim qilish juda muhim. Chunki u bevosita yaqin tariximizning bir qismi, biz uchun o'tmish saboqlaridir.

Ayting-ayting, el aro hech kim nazardan qolmasin

Manfaat tushunchasi har qanday inson ko'nglida bor, u qalb o'tli makondan mustahkam o'rin egallagan. Manfaat ham aslida, Yaratganing insonga in'omi, in'om bo'lganda ham eng kerakli, eng zarur, uni shu go'zal shavqli dunyo bilan bog'laguvchi go'zal rishtadir, balki. Usiz hayot bu qadar farahli, totli bo'lmadi. Har nening mezonini borligi va mezon deganlari hamisha ham omonlikda ushlab turilmasligi bizga ayon. Manfaatda ham. U ko'p hollarda kishini to'g'ri yo'ldan adashtirib yuboradi. Manfaatlardan to'qnashuvi hodisalarini keltirib chiqaradi.

Yaqin va uzoq davrlardagi ijod ahli boshiga tushgan kulfatlarga ham yirik manfaatlardan girdobiga tushib, o'z egasidagi vijdon tanachalarini siqib chiqargan, egasining maqsad yo'nalishtirib, o'zligini unuttirgan — unuttira olgan, butun qarashlari, xizmatlari, fikru zikri, xatti-harakatini boshqa o'zanlarga solib yuborgan maqda manfaatlardan sabab bo'lgani, afuski, achchiq haqiqat.

1939-yilda sobiq ittifoq tarkibidagi vatanimizda Yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilinib, bema'n'i asoslar, turli ayblovlar bilan 1951-yilda nomi o'chirilgan iste'dodli g'azalnavis shoir Nabixon Xo'jayev — Chustiy she'riyatidan bebahra kishi kam bo'lsa kerak. Garchand hayotlik chog'ida yetarlicha qadr topmagan bo'lsa-da, adolat baribir o'z so'zini aytdi. Bugun uning ijodi o'z qadriini topmoqda. Joriy yilda hukumat qarori bilan O'zbekiston xalq shoiri Nabixon Chustiy tavalludining 120 yilligi keng nishonlanayotgani ham buning yaqqol dalili. Muhimi, shoir ijodi minglab muxlislar tomonidan sevib o'qilmoqda. Dilbar taronalar qanotida barcha o'zbek xonadonlariga bardavom kirib bormoqda. Toki millat bor ekan, Chustiy ijodi, ravon she'riyati barhayyotdir.

Shoirning otasi Nurullohoja Eshonxoja o'g'li Namangan viloyatining Chust shahrida tavallud topgan. U atlasboflik qilish bilan birga, Turubiy taxallusida go'zal g'azallar ham bitgan. Nurullohoja 1917-yili oilasini Qo'qonga ko'chirib olib keladi. Ko'p jonli oilani boqish, tirikchilik qiyinlashgan zamonda mablag' topish yo'llarini qidirish uni shunday qilishga majbur etgan. Nurullohoja shu yili Uchko'priktumanining Tepaqo'rg'on qishlog'iga imom-xatib etib tayinlanadi. Shunday bo'lsa-da, 12 jondan iborat katta oilani boqish mushkullashib boraveradi. Nurullohoja olti o'g'lining har birini xat-savodli, ilmiy, mehnatkash, esli-hushli qilib tarbiyalaydi, farzandlar asta-sekin o'z aravasini o'zi torta boshlaydi. Nabixon (Chustiy) ham ilm olish va atlasboflikda aka-ukalaridan sira qolishmasdi.

Chustiyning armoni yoxud u nega davr bilan hisoblashdi?

1939-yilda "Nafis adabiyot" davlat nashriyoti tomonidan uyg'ur tilida nashr etilgan "Zafarnoma" dostoni ayni vaqtda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida 27 246-inventar raqami bilan saqlanadi. Kitobda jami 39 sahifa bo'lib, 5000 nusxada chop etilgani ko'rsatilgan. Doston quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Yur, qalamim, erk ila mardona yur,
Erk sharobi bila mastona yur,
Bosh kesilish jahlidin ozodsan,
Chehrang ochiq, qalbi tiniq, shodsan.
Garchi dostonida mavjud tuzumni madh etish, unga moslashish, uning qudratini namoyon etish ruhi ustunlik qilsa-da, ko'plab satrlarda betakror jumalar uchraydi.

Chustiy ijodining cho'qqisi deb atashga arziydigan "Indamaslar olami" manzumasi 1996-yilda alohida kitob holida Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyotida chop etilgan. Uni nashrga Husaynxon Orifiy tayyorlagan. Kitobda asarning esli o'zbek yozuvidagi matni ham keltirilgan bo'lib, unga Saidxo'ja Saidazim xattotlik qilgan. Kitob Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida 1838-inventar raqami ostida saqlanadi.

Chustiy merosi katta ko'lamga ega bo'lib, unda g'azallar, murabbalar, muxammaslar, musaddaslar, musammanlar, tarjibandlar va lirik janrlardagi boshqa asarlar o'rin olgan. Shuningdek, tarjimalar, satira yo'nalishidagi asarlar ham mavjud.

Shoir qo'lyozmalaridagi o'tmish haqiqatlari

2019-yil yanvar oyida shoir Nabixon Xo'jayev — Chustiyning farzandi Baxtiyorxon Nabixonovdan Chustiyning o'z qo'li bilan

eski o'zbek yozuvida yozgan xotira-kundalik chiqib bo'lmadi. Eng mohir mutaxassislar ham ayrim sahifalardan bir necha so'zni o'qib, qalam bilan ustiga yozib qo'yish bilan cheklandi. Shundan so'ng 65 betlik kundalik-qo'lyozma suratga olinib, saqlab qo'yildi va qo'lyozma Baxtiyor Nabixonovga qaytarildi. Ayni vaqtda ushbu qo'lyozmada shoir nimalarni qayd etib qo'yganini bilish, ularni fan va ijod ahliga — qiziquvchilarga, qolaversa, shoirning farzandlari va nabiralarga taqdim etish maqsadida eng kuchli mutaxassislarga ko'rsatilgan. O'qishga muvaffaq bo'lingan dastlabki qismini shoirning farzandlari o'tgan asr oxirlarida "Zavqi ko'p Xo'qandiyman" nomi bilan matbuotda e'lon qilgan. Ushbu maqolaning tagsarlavhasi o'rinda "Shoir Charxiy, Nazirxo'ja hofiz, san'atkor Odiljon Xalilov hamda shoir Chustiyning yozma, singlisi Habibaxon, jiyani Yusufxonning og'zaki xotiralari asosida tayyorlandi", degan izoh ham berilgan.



Shoshilinch yozilgan. Keyingi qismlarini o'qishga harchand urinmaylik, buning uddasidan chiqib bo'lmadi. Eng mohir mutaxassislar ham ayrim sahifalardan bir necha so'zni o'qib, qalam bilan ustiga yozib qo'yish bilan cheklandi. Shundan so'ng 65 betlik kundalik-qo'lyozma suratga olinib, saqlab qo'yildi va qo'lyozma Baxtiyor Nabixonovga qaytarildi. Ayni vaqtda ushbu qo'lyozmada shoir nimalarni qayd etib qo'yganini bilish, ularni fan va ijod ahliga — qiziquvchilarga, qolaversa, shoirning farzandlari va nabiralarga taqdim etish maqsadida eng kuchli mutaxassislarga ko'rsatilgan. O'qishga muvaffaq bo'lingan dastlabki qismini shoirning farzandlari o'tgan asr oxirlarida "Zavqi ko'p Xo'qandiyman" nomi bilan matbuotda e'lon qilgan. Ushbu maqolaning tagsarlavhasi o'rinda "Shoir Charxiy, Nazirxo'ja hofiz, san'atkor Odiljon Xalilov hamda shoir Chustiyning yozma, singlisi Habibaxon, jiyani Yusufxonning og'zaki xotiralari asosida tayyorlandi", degan izoh ham berilgan.

Quyida ushbu qo'lyozmaning keyingi urinishlarda o'qilgan qismini juz'iy qisqartirma bilan keltiramiz:

"1904-yilda dunyoga kelganman, muchalim baliq. 7 yoshdan 12 yoshgacha maktabdor qarindoshimiz Ubaydaxon aya qo'llarida tahsil oldim. Men go'daklik vaqtida u kishining oq sutidan bahravor bo'lgan ekanman, u kishining qizlari Muharramxonga esa mening onam o'z ko'ksidan obihayot tutgan ekan. Shunday qilib, Ubaydaxon aya menga ayni vaqtda ham rizo'iy ona, ham mudarris bo'lganlar. U kishining qizi Muharramxon bilan bir-birimizga rizo'iy aka-singil edik. Yoshlik chog'larimdayoq atlasboflik va she'r yozishni dadamdan o'rganganman. Keyinchalik g'azallarimdan birida "Chust shahrida tug'ildim, shul sabab Chustiy laqab, otadan meros shoirlik-la atlasboflik", deb yozgandim.

Bolalar ichida hammadan durust edim. Bir necha haftada alifbo, haftiyak va boshqa savod kitoblarini o'zlashtirdim. Keyin Qur'oni karim, Chahor kutub, Navoiy, Hofiz Sherziy, Sa'diy, Bedil asarlarini, Mantiq, Maslak kabi darsliklarni o'rgandim, ikki yilda Kalomullohni to'la yod oldim, ammo chiroyli yozishni o'rgana olmadim. Biz, aka-ukalar avval Ubaydaxon ayamizning erlari Nasrulloxon To'rada, keyin Qo'qondagi Mirg'ofur xorixonasida qorilikka o'qiddik.

...Biz Mamadali boboning uylarida uch kecha tunaganimizdan so'ng to'rtinchi kuni shahardan qishloq tomonga to'pdan o'q uzildi. Bu hammani qattiq xavotirga solib, turli-tuman g'ala-g'ovur gaplar ko'paydi. "Ertaga bolshavoylar bosar emish, qo'rboshilarga oziq-ovqat, yem-xashak bergan qishloqlarga o't ko'yar emish", degan ovozlari juda tez tarqaldi. Buni eshitgan bechora qochqolar endi Yangiqishloqdan boshqa qishloqlarga qocha boshladi. Biz ham bu qishloqni tark etish niyatida otni aravaga qo'shmoqchi bo'lib turgan edik, Yahyoxon akamning qushxona qaroli Abdulloh bilan qayergadir ketgani ma'lum bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, qolgan

berishibdi. Akam shaharda qolish o'ta xavfli ekanini fahmlab, un bilan birga achamni ham yetaklab olib kelayotgan ekan. Buni ko'rib, xursandlikdan dadamning ko'zlariga yosh qalqidi, akamni uzoq duo qildirdi. Shunda rashk qilib: "Agar ana shu xizmatga men yaranimda edi, bu duoni men olgan bo'lardim, ne qilayki, yoshman", dedim ichimda, lekin akamni yanada yaxshi ko'rib ketdim.

Biz Oltiqushga borib, bir dehqon xonadoniga tushdik. Buvim darrov xamir qorib, non yasay boshladi. Tandir qizigach, endigina nonlarni yopayotganlarida Dang'ara tomondan buruqsiragan quyuq qora tutun osmonga ko'tarildi. Odamlarning aytishicha, o'g'rilar Hayit bosmachining uyiga o't qo'yibdi, aholisi o'chirishga yordam bermagani uchun hozir Oltiqushga kelar emish. Buvim tezda nonlarni tandirdan uzib oldi. Hammamiz aravaga o'tirib Qiyali tomon yo'l oldik. Yura-yura Amiroboddan o'tgach, bir qishloqqa yetib bordik. U yerdagi xonadonlardan birorta ham bo'sh uy topolmadik. Qochqolar shu qadar ko'p ediki, hatto tomlarga kapa tikib, joylashib olgandi.

Qiy-chuv ovozi osmonu falakka ko'tarilgan, it egasini tanimaydi. Ko'chalarda barcha kiyimlarni ustma-ust kiyib olgan xotin-qizlar, bolalar, munkillagan cholu kampirlar, ko'chko'ron ortilgan ko'plab aravalar uyoqdan-buyoqqa betinim izg'ir edi. Ularga qarab: "Endi qayerga borarkan bechoralar?", deb o'ylar

“CHUSTIY IJODINING CHO‘QQISI DEB ATASHGA ARZIYDIGAN “INDAMASLAR OLAMI” MANZUMASI 1996-YILDA ALOHIDA KITOB HOLIDA FANLAR AKADEMIYASINING “FAN” NASHRIYOTIDA CHOP ETILGAN.

edim. Keyin ma'lum bo'lishicha, qishloqdan sal narida keng qumlik bor ekan. Ko'p qochqolar o'sha joyga borib, aravalarni gir aylana chip bog'lagach, o'rtasiga chodirlar tikib, joylashib olgan ekan. Kechasi o'sha tomondan do-faryod, qiy-chuv ovozi qishloqqa eshitildi. Ba'zi diyonatli yuragida o'ti bor yigitlar yordam bergani yugurdi. Biror soatdan keyin ma'lum bo'ldiki, qumliklarda joylashgan sitamdiya, jafa ostida qolgan nochorlarni mahalliy aholiga mansub bir to'da haromzodlarga bosibdi, ya'ni hujum qilib, ularning qimmatbaho mulkini, pul va tilla taqinchoqlarini aravaga ortib qochibdi. Himoyaga borganlar piyoda bo'lganlari uchun yetolmabdi.

Bu mudhish voqea norasida vujudimni larzaga soldi, qo'limdan kelganda ularni tutib, qiyma-qiyma qilib, ularni ilarga tashlardim! O'zingiz o'ylang, axir shahardan qochib kelganlar ham, ularni talagan o'g'rilar ham musulmonlar edi-ku?! U yerda bo'lak millat, bo'lak din vakillari yo'q edi-ku?! Hammasi bir millat — o'zbeklar edi-ku?! Bu qanday falokatki, o'zaro birlashib dushmaniga qarshi kurashish o'miga, o'zlari bir-birlarini talasalar,



o'miga uning etib, mahsisiyu to'nini yechib olib ketsa-ya, yo ajab! Bu qanday musulmonchilik, bu qanday odamiylik?! Bu ko'rganlarimiz hali bolva ekan, insomning naqadar tubanlashishi mumkinligini keyin ko'rdik.

...Nafritim qo'zg'ab, akamga: "Ana, ko'rdingimni, biz shularni tomosha qilgani keldikmi?! Bularni tomosha qilmoq'imiz emas, ahvollariga yig'lamog'imiz lozim, yuring, ketdik!" dedim-da, akamni qo'llaridan tortib uyga olib ketdim. Bu mudhish manzara talay vaqtga qadar ko'z oldimdan ketmay, meni ruhan azoblab yurdi.

Biz, aka-ukalar yana Mirg'ofur qorining daxmasida, Mavlonoqul qori domlada qorilikka o'qiy boshladik. Ko'p vaqt o'tmay, tirikchilik qiyinlasha boshlagach, dadam yana qishloqqa ko'chishga qaror qildi. Biz sobiq Molotov rayonidagi Tepaqo'rg'on qishlog'ining Kallaxo'r mahallasidan bir bo'sh hovli topib ko'chib ketdik, o'qishimiz to'xtadi. Dadam qishloqda to'quvchilikni boshlab, men va akam, Valixon qoriga bo'z to'qishni o'rgatdilar, o'rganish uncha qiyin bo'lmadi. Dadam, akam,